

**ELEKTR ENERGIYA ISHLAB
CHIQARADIGAN
TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINI YAGONA
ELEKTR ENERGETIKASI
TIZIMIGA ULASH BO'YICHA
USLUBIY QO'LLANMA**

Toshkent – 2025

Elektr energiya ishlab chiqaradigan tadbirkorlik subyektlarini yagona elektr energetikasi tizimiga ulash bo'yicha uslubiy qo'llanma. T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil. 23 bet.

Mazkur qo'llanma O'zbekiston Respublikasida elektr energiyasi, shu jumladan, energiyaning qayta tiklanadigan manbalaridan elektr energiyasi ishlab chiqaradigan tadbirkorlik subyektlarini yagona elektr energetikasi tizimiga ulash tartibini sodda va ravon tilda tushuntirishga qaratilgan.

Ushbu qo'llanma energetika sohasidagi davlat xizmatchilari, tadbirkorlar hamda keng jamoatchilik uchun mo'ljallangan.

Ushbu uslubiy qo'llanma tavsiyaviy xususiyatga ega.

MUNDARIJA

Elektr energiya ishlab chiqaradigan tadbirkorlik subyektlarini yagona elektr energetikasi tizimiga ulash bo`yicha normativ huquqiy hujjatlar	4
Kirish	5
Asosiy Tushunchalar	6
Ishlab chiqaruvchilarning elektr qurilmalarini yagona elektr energetikasi tizimiga ulashga texnik shartlarni berish	10
Ishlab chiqaruvchining elektr qurilmalarini yagona elektr energetikasi tizimiga ulash loyihalarini ishlab chiqish, ko`rib chiqish va kelishish tartibi	14
Ishlab chiqaruvchilarning elektr qurilmalarini yagona elektr energetikasi tizimiga ulash tartibi	16
Yakunlovchi qoidalar	19

Elektr energiya ishlab chiqaradigan tadbirkorlik subyektlarini yagona elektr energetikasi tizimiga ulash bo'yicha normativ huquqiy hujjatlar

O'zbekiston Respublikasining Elektr energetikasi to'g'risida"gi Qonuni	
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi Elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanish qoidalarini tasdiqlash to'g'risidagi 319-sonli qarori	
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-iyuldagi "Elektr energiyasi, shu jumladan, energiyaning qayta tiklanadigan manbalaridan elektr energiyasi ishlab chiqaradigan tadbirkorlik subyektlarini yagona elektr energetikasi tizimiga ulash reglamentini tasdiqlash to'g'risida "gi 610-sonli qarori	

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda energetika samaradorligini oshirish, energiya xavfsizligini mustahkamlash hamda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida resurslarni tejovchi, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish borasida izchil islohotlar olib borilmoqda. Ushbu jarayon energiya ishlab chiqarish va iste'molida raqamlashtirish, hisob-kitob intizomini kuchaytirish, ekologik talablarga muvofiqlikni ta'minlash hamda investitsion loyihalarning barqarorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Natijada, ishlab chiqarish xarajatlari qisqarib, energiya ta'minoti barqarorligi va iste'molchilar uchun xizmatlar sifati yaxshilanmoqda.

Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan mazkur uslubiy qo'llanma elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlarini yagona elektr energetika tizimiga ulash tartibini aniq va tushunarli tarzda belgilab beradi. Qo'llanma texnik shartlarni olish, loyiha-smeta hujjatlarini kelishish, xavfsizlik va ekologiya standartlariga muvofiqlikni tasdiqlash, sinovdan o'tkazish hamda ekspluatatsiyaga qabul qilish kabi bosqichlarni ketma-ket yoritadi. Shuningdek, u energetika sohasidagi mutaxassislar, tadbirkorlar, investorlar hamda elektr stansiyalarini loyihalash, qurish va tarmoqqa ulash bilan shug'ullanuvchi barcha ishtirokchilar uchun amaliy yo'l-yo'riqlarni taqdim etadi.

ASOSIY TUSHUNCHALAR

Elektr energiyasi, shu jumladan, energiyaning qayta tiklanadigan manbalaridan elektr energiyasi ishlab chiqaradigan tadbirkorlik subyektlarini yagona elektr energetikasi tizimiga ulashda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

baholash — ishlab chiqaruvchilarning quvvatlarini yagona energetika tizimiga ta'sirini o'rganish;

ixtisoslashtirilgan tashkilot — tarmoq holatini hamda quvvat o'tkazuvchanligini laboratoriya yordamida tekshirib, baholovchi tashkilot;

loyiha tashkiloti — ishlab chiqilgan texnik shartlarga asosan qayta tiklanuvchi manba qurilmalarini elektr tarmoqlariga ulash loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiquvchi tashkilot;

tarmoq egasi — kuchlanishidan qat'i nazar, elektr uzatish tarmog'iga ega bo'lgan korxona yoki yuridik shaxs;

texnik shartlar — muayyan quvvatlarni elektr tarmog'ining muayyan nuqtasiga ulash uchun zarur texnik talablar sanab o'tilgan hujjat;

tizim operatori — elektr energiyasiga bo'lgan talab va taklifga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olgan holda, tezkor-dispatcherlik boshqaruvini amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

elektr tarmog'i xo'jaligi obyektlari — elektr energiyasini uzatish va yetkazib berish uchun mo'ljallangan elektr energiyasini uzatish liniyalari, transformator podstantsiyalari, taqsimlash punktlari;

elektr qurilmasi — elektr energiyasini ishlab chiqarish, transformatsiya qilish (transformator), uzatish, taqsimlash hamda energiyaning boshqa turiga aylantirish uchun mo'ljallangan mashinalar, apparatlar, elektr uzatish liniyalari va yordamchi uskunalar yig'indisi (ular o'rnatilgan inshootlar va binolar bilan birga);

elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi yoki salohiyatli ishlab chiqaruvchi (keyingi o'rinlarda — ishlab chiqaruvchi) — o'z ehtiyoji va (yoki) boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsga sotish uchun elektr energiyasi (quvvatlar), shu jumladan, tiklanadigan energiya manbalaridan elektr energiyasi (quvvatlar) ishlab chiqaradigan yoki ishlab chiqarishni tashkil etish niyatidagi tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'i nazar, yuridik yoki jismoniy shaxs;

yagona elektr energetikasi tizimiga ulashning maqbul nuqtasi — ishlab chiqaruvchining mavjud quvvatini uzatish uchun elektr tarmog'i xo'jaligining kuchlanish darajasi va o'tkazish qobiliyati bo'yicha mos bo'lgan ishlab chiqaruvchi joylashgan joyga yaqin joylashgan obyekti.



Ushbu qo'llanma elektr energiyasi ishlab chiqaruvchining yangidan ishga tushiriladigan quvvatlarini yagona elektr energetikasi tizimiga ulashda, ishlab chiqaruvchining oldin ulangan elektr qurilmalari quvvatlari ko'payishda, ishlab chiqaruvchining oldin ulangan elektr qurilmalarining yagona elektr energetikasi tizimiga ulanishi nuqtalari o'zgargan hollarda qo'llaniladi.



O'zining elektr qurilmalarini yagona elektr energetikasi tizimiga ulash uchun ishlab chiqaruvchi elektr tarmoqlariga ulanish mo'ljallanayotgan tashkilotdan yangi yoki qo'shimcha energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarni ulashga **texnik shartlarni** olishi **shart**.

Oldin ulangan elektr qurilmalarini yagona elektr energetikasi tizimiga ulash nuqtasini o'zgartirish zarur bo'lganda ham ishlab chiqaruvchi texnik shartlarni olishga **majburdir**.



Texnik shart ishlab chiqaruvchining buyurtmasi bo'yicha:



magistral elektr tarmoqlariga ulashda — "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ yoki uning hududiy bo'linmalari tomonidan ularda tegishli vakolatlar mavjud bo'lganda;



hududiy elektr tarmoqlariga ulanishda — "Hududiy elektr tarmoqlari" AJning tegishli hududiy korxonasi tomonidan;



elektr energiyasi ishlab chiqaradigan korxonalarning elektr tarmoqlariga ulanishda — elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha tegishli korxona, shu jumladan, "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ va "O'zbekgidroenergo" AJ tomonidan;

iste'molchilarning elektr tarmoqlariga ulanishda — "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJning (ulardan magistral



elektr tarmoqlari sifatida foydalanilganda) va/yoki "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ tomonidan beriladi.

Yagona elektr energetikasi tizimining qabul qiluvchi elektr tarmog'ining kuchlanish sinfi va elektr tarmog'i xo'jaligi obyektlariga ulashning maqbul nuqtasi ishlab chiqaruvchining beradigan mavjud quvvati quyidagicha bo'lganida qabul qilinadi:



10 kVt gacha —	0,23 kV;
3 kVt dan 100 kVt gacha —	0,4 kV;
20 kVt dan 2 000 kVt gacha —	6 — 10 kV;
1 000 kVt dan 20 000 kVt gacha —	35 kV;
10 000 kVt dan 40 000 kVt gacha —	110 kV;
20 000 kVt va undan yuqori —	220 kV.

ISHLAB CHIQUYUVCHILARNING ELEKTR QURILMALARINI YAGONA ELEKTR ENERGETIKASI TIZIMIGA ULASHGA TEXNIK SHARTLARNI BERISH

Elektr qurilmalarini yagona elektr energetikasi tizimiga ulash, oldin ulangan elektr qurilmalari quvvatlarini ko'paytirish yoki ulanish nuqtasini o'zgartirish uchun ishlab chiqaruvchi elektr tarmog'i egasiga buyurtmanoma beradi, ushbu buyurtmanoma uning veb saytida yoki interaktiv davlat xizmatlari yagona portalida bo'lishi kerak.

20 kVt gacha quvvatli barcha ishlab chiqaruvchilarga nisbatan ishlab chiqaruvchining elektr qurilmalarini ulash mo'ljallanayotgan elektr tarmoqlari egasi buyurtmanomasi tushgan kundan boshlab **besh ish kuni** mobaynida uni o'rganadi va ishlab chiqaruvchiga elektr tarmog'iga ulanish uchun texnik shartlarni beradi.



20 kVt va undan yuqori quvvatni berish imkoni bo'lgan barcha ishlab chiqaruvchilar uchun tarmoqqa ulanishning imkoniyati bo'lishi mumkin bo'lgan variantlari, shuningdek, ko'rib chiqiladigan har bir variant uchun texnik shartlar tarmoqqa ulanishni o'rganish yoki baholash asosida ishlab chiqiladi.

Texnik shartlarda ulanishning maqbul nuqtasi tarmoqqa ulanish uchun bajarilishi zarur bo'lgan ishlar hisobga olingan holda,

baholash yakunlari bo'yicha berilgan xulosadagi taklif qilingan variantlardan elektr tarmoqlari egasi ishlab chiqaruvchi bilan birgalikda tanlanadi.

Texnik shartda

-  yangidan ulanadigan yoki qo'shimcha quvvatni berishga ruxsatnoma;

-  ishlab chiqaruvchining elektr qurilmalari tarmoqqa ulanish nuqtasi;

-  ishlab chiqaruvchining elektr qurilmalari tarmoqqa ulanishi uchun quriladigan elektr uzatish havo yoki kabel tarmoqlarining kuchlanish sinfi;

-  ayrim hollarda — tashqi elektr ta'minoti sxemasining variantlarini ishlab chiqish zarurligi;

-  yagona elektr energetikasi tizimining barqarorlik shartlariga sutkalik yuklamalarni qoplash jadvalini tartibga solishda ishtirok etish bo'yicha asoslangan talablar;

-  qisqa tutashuv toklarining hisoblab chiqilgan miqdori, releli himoyaga, avtomatikaga, aloqaga, ortiqcha kuchlanishdan izolyatsiya qilish va himoya qilishga qo'yiladigan talablar;

-  ulanish nuqtasida kuchlanishning normal darajasini saqlash uchun reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish bo'yicha talablar;

-  ishlab chiqaruvchining elektr energiyasini hisobga olish asboblarini yagona elektr energetikasi tizimining elektr energiyasini hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimi bilan integratsiyalash zarurligi bilan birgalikda elektr energiyasini hisobga olishga qo'yiladigan talablar;

-  yetkazib beriladigan elektr energiyasi sifatiga qo'yiladigan talablar;

📌 davlat standartlariga muvofiq barqarorlashtiruvchi qurilmalarni va elektr energiyasi sifati nazorati asboblari o'rnatishga qo'yiladigan maxsus talablar;

📌 himoya avtomatikasi vositalariga yoki avariya vaziyatlarida ishlab chiqaruvchining energiya ishlab chiqaruvchi elektr qurilmalarini uzish qurilmalariga qo'yiladigan o'ziga xos talablar;

📌 ishlab chiqaruvchining elektr qurilmalarini ishlatishni tashkil etish bo'yicha talablar;

📌 loyihalashtirish va ishlarni bajarishning amaldagi normalari hisobga olingan holda texnik shartlarga amal qilish muddati ko'rsatiladi.

📌 Ayrim hollarda texnik shartlarga ushbu ulanish bilan bog'liq bo'lgan boshqa texnik talablar ham kiritilishi mumkin.




Agar texnik shartlarning amal qilish muddati tamom bo'lgandan keyin tarmoqqa ulanish uchun zarur bo'lgan elektr tarmoq xo'jaligi obyektlarini qurish bo'yicha ishlar bajarilmagan bo'lsa, texnik shartlar **o'z kuchini yo'qotadi.**

Agar texnik shartlar berilgan sanadan boshlab uch yil o'tgandan keyin yagona elektr energetikasi tizimiga ulanish uchun infratuzilmani qurish boshlanmasa, texnik shartlar **o'zining huquqiy maqomini yo'qotadi.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari bo'yicha qurilayotgan elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha obyektlarga nisbatan ushbu talab tatbiq etilmaydi.

Elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha elektr energiyasi obyektlari qurish uchun tanlov e'lon qilinganda tanlov hujjatlariga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

- ▶ Maxsus iqtisodiy zonaning faoliyat ko'rsatish muddatini uzaytirish, chegaralarini o'zgartirish va uni tugatish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan amalga oshiriladi.
- ▶ yagona elektr energetikasi tizimiga ulanishning maqbul nuqtalari to'g'risidagi ma'lumotlar va elektr qurilmalariga ulanish bo'yicha boshqa zarur ma'lumotlar;
- ▶ qurilmalariga ulanishga texnik shartlar

ISHLAB CHIQUYUVCHINING ELEKTR QURILMALARINI YAGONA ELEKTR ENERGETIKASI TIZIMIGA ULASH LOYIHALARINI ISHLAB CHIYISH, KO'RIB CHIYISH VA KELISHISH TARTIBI



Texnik shartlarga muvofiq ishlab chiqaruvchining buyurtmasi bo'yicha ixtisoslashtirilgan loyiha tashkiloti tomonidan ishlab chiqaruvchining elektr qurilmalarini yagona elektr energetikasi tizimiga ulash loyihasi ishlab chiqiladi.

Loyiha tashkiloti ulash loyihasini quyidagilar bilan kelishadi:

- ✚ texnik shartlarni bergan tashkilot bilan
- ✚ 35 kV va undan yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlariga, shuningdek, Toshkent viloyati va Toshkent shahrida joylashgan ishlab chiqaruvchilarning elektr qurilmalariga ulashda — "O'zenergoinspeksiya" bilan
- ✚ 0,4 — 6 — 10 kV kuchlanishli elektr tarmoqlariga ulashda — "O'zenergoinspeksiya"ning tegishli hududiy bo'linmalari




Yakka tartibdagi uyda yashaydigan jismoniy shaxs hisoblangan ishlab chiqaruvchining 0,23 — 0,4 kV kuchlanishli

elektr qurilmalarini elektr tarmoqlariga ulashda ulash loyihasini "O'zenergoinspeksiya" yoki uning hududiy bo'linmalari bilan kelishish **talab qilinmaydi**.

Texnik shartlarni bergan tashkilotlar va "O'zenergoinspeksiya" yoki uning hududiy bo'limi u kelishish uchun taqdim etilgan kundan boshlab **besh ish kuni** mobaynida ulash loyihasini kelishadilar yoki uni kelishishni rad etadilar.



Ulash loyihasining texnik shartlar hamda elektr uskunalarini tuzilish qoidalari talablaridan chetga chiqishi ushbu loyihani kelishishni **rad etishga** asos bo'ladi.



Ulash loyihasini kelishishdagi kamchiliklar bartaraf etilgandan keyin takroran ko'rib chiqish va kelishish ulash loyihasi kelishish uchun takroran taqdim etilgan kundan boshlab **uch ish kunidan** ortiq bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi

ISHLAB CHIQARUVCHILARNING ELEKTR QURILMALARINI YAGONA ELEKTR ENERGETIKASI TIZIMIGA ULASH TARTIBI



Qurilish-montaj va ishga tushirish-sozlash ishlari nihoyasiga yetgach, ishlab chiqaruvchi ulanadigan elektr qurilmalarining tayyorligini texnik ko'rikdan o'tkazish uchun tarmoqlariga ulanadigan tashkilotga murojaat qiladi.

Texnik ko'rikdan o'tkazish kunida "O'zenergoinspeksiya" yoki uning hududiy boshqarmasining vakolatli vakili, shuningdek, tarmoqlariga ulanadigan tashkilotning vakili joyning o'ziga chiqib, ishlab chiqaruvchi bilan birgalikda ishlab chiqaruvchining yangi ishga tushiriladigan elektr qurilmalarini montaj qilish va sozlashda texnik shartlar talablari bajarilishini, belgilangan normalar va qoidalarga rioya qilinishini, tayyorlangan ekspluatatsiya xodimlari va tegishli hujjatlar mavjudligi bo'yicha texnik ko'rikdan o'tkazadi.



Texnik ko'rikdan o'tkazish natijalari bo'yicha **bir kun** muddatda dalolatnoma rasmiylashtiriladi, uning bir nusxasi ishlab chiqaruvchiga topshiriladi.

Elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishga tayyor emasligi to'g'risida dalolatnoma berilishiga quyidagilar asos bo'ladi:

- ✔ Texnik shartlar talablari bajarilmaslik,
- ✔ elektr qurilmalarini montaj qilish va sozlashda amaldagi normalar va qoidalardan chetga chiqilganlik
- ✔ tayyorlangan ekspluatatsiya xodimlari va zarur hujjatlar mavjud emaslik.

Elektr energiyasini hisobga olish asboblarini plombalash, elektr energiyasini yetkazib berish shartnomasini tuzish va yagona elektr energetikasi tizimiga ulash

Ulash sxemasini tekshirish va plombalash yangi ishga tushiriladigan energiya ishlab chiqaruvchi elektr qurilmalari ishga tushirilishiga dalolatnoma olingandan keyin ishlab chiqaruvchining vakolatli vakillari, tarmoqlariga ulanadigan tashkilot tomonidan ishlab chiqaruvchining buyurtmanomasi tushgan kundan boshlab **uch ish kuni** mobaynida bajariladi.



Yagona elektr energetikasi tizimiga elektr energiyasini yetkazib berishga shartnoma ishlab chiqaruvchi bilan tarmoqlarning egasi o'rtasida tuziladi.

Ishlab chiqaruvchining elektr qurilmalarini iste'molchining elektr tarmoqlariga ulashda elektr energiyasi yetkazib berishda shartnoma tuzish tartibi ulash sxemasidan kelib chiqib, bevosita texnik shartlarda belgilanadi.

Jismoniy shaxsning yakka tartibdagi turar joyini 0,23 — 0,4 kV kuchlanishli elektr tarmoqlariga ulashda elektr energiyasini hisobga olish asboblarini tekshirish va plombalash **tarmoqlar egasi** tomonidan amalga oshiriladi.

Elektr energiyasini yetkazib berish uchun shartnoma tuzish, elektr energiyasini hisobga olish asboblarini tekshirish va plombalash, tarmoqlarning egasi tomonidan ta'minlanadi.

YAKUNIY QOIDALAR

Texnik shartlarni, shu jumladan, qo'shimcha texnik shartlarni ishlab chiqish va berish, loyihani yagona elektr energetikasi tizimiga ulashni kelishish, energiya ishlab chiqaruvchining elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishga dalolatnoma berish, shuningdek, ishlab chiqaruvchining elektr energiyasini hisobga olish asboblari tekshirish va plombalash to'lov undirilmasdan amalga oshiriladi.

Ishlab chiqaruvchilarning energiya ishlab chiqaruvchi elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilish O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi

Elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlarini yagona elektr energetikasi tizimiga ulash

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Harakatlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Ishlab chiqaruvchi	Texnik shartlarni berish uchun tarmoqlar egasiga buyurtmanoma berish.	Zaruratga ko'ra
2-bosqich	"HET" AJ (20 kVt gacha)	Ishlab chiqaruvchining elektr qurilmalarini o'rganish va ishlab chiqaruvchiga elektr tarmog'iga ulanish uchun texnik shartlarni berish.	Besh ish kuni mobaynida
	"HET" AJ (20 kVt dan 500 kVt ni ham o'z ichiga olgan quvvatga ega bo'lgan ishlab chiqaruvchini ulashda)	Ulanishga buyurtmanoma nusxasini xabardor qilish uchun tizim operatoriga yuborish. Tarmoqqa ulashni baholash uchun sertifikatlashtirilgan tashkilotni belgilash.	Bir ish kun mobaynida
	Tarmoqlar egasi (500 kVt dan ortiq quvvatga ega bo'lgan ishlab chiqaruvchini ulashda)	Ulanishga buyurtmanoma nusxasini kelishish uchun tizim operatoriga yuborish. Tarmoqqa ulanishni baholash uchun sertifikatlashtirilgan tashkilotni belgilash.	Uch ish kun mobaynida
3-bosqich*	Tizim operatori	Ishlab chiqaruvchining buyurtmanomasini ko'rib chiqish, kelishish yoki asoslangan rad javobini tarmoqlar egasiga taqdim etish.	Besh ish kun mobaynida
4-bosqich			

	Ixtisoslashtirilgan tashkilot	Tarmoqqa ulanishni baholash va xulosani tarmoqlar egasiga taqdim etish.	Yigirma ish kuni mobaynida
5-bosqich	Tarmoqlar egasi	Baholash yakunlari bo'yicha berilgan xulosadagi takliflardan ulash variantini ishlab chiqaruvchi bilan kelishish. Ishlab chiqaruvchining elektr qurilmalarini ulash uchun texnik shartlarni berish.	Xulosa olingan kundan boshlab besh ish kuni mobaynida
6-bosqich	Maxsus loyiha tashkiloti	Ishlab chiqaruvchi bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha elektr qurilmalarini elektr tarmoqlariga ulash loyihasini ishlab chiqish. Ulash loyihasini texnik shartlarni bergan tashkilotga va "O'zenergoinspeksiya"ga kelishish uchun yuborish.	Shartnomada belgilangan muddatlarda
7-bosqich	Texnik shartlarni bergan tashkilot, "O'zenergoinspeksiya"	Ulash loyihasini kelishish.	Besh ish kun mobaynida
8-bosqich	Ishlab chiqaruvchi yoki ishlab chiqaruvchining ulanadigan elektr qurilmalarini ishlatadigan tashkilot	Ishga tushirish sxemasini tuzish. Ishga tushirish sxemasini tarmoqlar egasi va tizim operatori bilan kelishish. Ishga tushirish-sozlash ishlarini bajarish. Ulanadigan elektr qurilmalarini montaj qilish va sozlashda texnik shartlar talablari bajarilishini va belgilangan normalar va qoidalarga rioya qilinishini tekshirish to'g'risida tarmoqlar egasiga murojaat yuborish.	Ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan muddatlarda

9-bosqich	Tarmoqlar egasi va "O'zenergoinspeksiya"	Ishlab chiqaruvchi murojaat qilgan kundan boshlab texnik ko'rikdan o'tkazish sanasini ishlab chiqaruvchiga ma'lum qilish.	Ikki ish kuni mobaynida
10-bosqich	"O'zenergoinspeksiya", tarmoqlar egasi va ishlab chiqaruvchi	Texnik ko'rikdan o'tkazish.	Tomonlar kelishgan muddatlarda, lekin murojaat qilingan kundan boshlab o'n ish kunidan oshmagan muddatda
11-bosqich	"O'zenergoinspeksiya"	3-ilovaga muvofiq shakldagi dalolatnoma rasmiylashtirish.	Bir ish kuni mobaynida
12-bosqich	Ishlab chiqaruvchi, tarmoqlar egasi	Ishlab chiqaruvchining buyurtmanomasi bo'yicha ulash sxemasini tekshirish, elektr energiyasini hisobga olish asboblari plombalash va elektr energiyasi yetkazib berishga shartnoma tuzish.	Uch ish kun mobaynida

Izoh.

[illegible]